

XALQARO MOLIYA INSTITUTLARIDAN O`ZBEKISTONGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARNING SAMARADORLIGI

Sharopov Firdavs

O`zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi

Anotatsiya: Maqolada xalqaro tajriba tahlili asosida moliyalashtirish tizimining ustun va zaif tomonlari aniqlangan hamda O`zbekistonda moliyalashtirish manbalari asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo`yicha aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar: xalqaro moliya institutlari, moliyalashtirish manbalari, investitsiya loyihalari, moliyalashtirish tizimi.

Abstract: The study analyzes the essence of international credit lines, mechanisms of their utilization, and their impact on the national economy, with a particular focus on the current practices in Uzbekistan.

Key words: international financial institutions, credit lines, investment projects, financing system, Uzbekistan, efficiency analysis

1. Kirish

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida investitsiya loyihalarining moliyalashtirilishi nafaqat iqtisodiy o`shishni ta`minlash, balki innovatsion taraqqiyot va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning ham muhim omili sifatida e`tirof etilmoqda. Xususan, rivojlanayotgan va iqtisodiy o`tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlar uchun xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan moliyalashtirish manbalari makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda va milliy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda asosiy moliyaviy manba vazifasini bajarmoqda.

O`zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barqaror o`shishini ta`minlash, zamonaviy infratuzilmani yaratish va ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida xorijiy moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri

sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro moliya tashkilotlarining mablag`lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish masalasi ilmiy va amaliy ahamiyatga molik dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

2. Adabiyotlar tahlili

Investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari moliyalashtirish manbalari orqali moliyalashtirish bo'yicha amalga oshirilgan empirik tadqiqotlar ushbu sohaning nazariy asoslarini amaliy natijalar bilan boyitgan va kredit tizimining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini turli usullar bilan o'rgangan. Jahon va milliy darajadagi tadqiqotlar moliyalashtirish manbalarining amaliyotdagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab bergan.

Empirik tadqiqotlardan biri — World Bank (2022) hisobotida ko'rsatilishicha, moliyalashtirish manbalari orqali moliyalashtirilgan loyihalarda monitoring va nazorat tizimining kuchliligi loyihaning yakuniy samaradorlik darajasini sezilarli oshiradi. Bankning ko'p yillik kuzatuv ma'lumotlariga asoslangan tahlili shuni ko'rsatadiki, kuchli nazorat o'rnatilgan loyihalarning muvaffaqiyat darajasi nazorat mexanizmlari sust bo'lgan loyihalarga nisbatan 20–25% yuqori bo'lgan.


Asian Development Bank (2021) o'z tadqiqotida Osiyo mamlakatlaridagi moliyalashtirish manbasi orqali moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining sektorlar kesimidagi natijalarini tahlil qilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, transport va infratuzilma sohasiga yo'naltirilgan moliyalashtirish manbalari iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga nisbatan sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga qilingan investitsiyalarga qaraganda tezroq va sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekistonda olib borilgan empirik tadqiqotlar orasida Abdurahmonov va Karimov (2020) tomonidan o'tkazilgan tahlil alohida e'tiborga loyiq. Ular O'zbekiston sharoitida xalqaro moliya tashkilotlarining mablag`lari hisobiga moliyalashtirilgan infratuzilma va energetika loyihalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini empirik usulda baholaganlar va loyihalarning 70% dan ortig'i rejalashtirilgan iqtisodiy natijalarga qisman yoki to'liq erishganligini aniqlaganlar.

3. Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Xususan, Jahon banki O‘zbekistonda 1992-yildan buyon faoliyat yuritadi va bugungi kunga qadar 100 dan ortiq loyiha doirasida qariyb 6 milliard AQSh dollari miqdorida kredit va grant mablag‘lari ajratgan. Bu loyihalar energetika, ta’lim, sog‘liqni saqlash, suv ta’minoti va qishloq xo‘jaligi kabi muhim sohalarni qamrab olgan. Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik doirasida esa 1995-yildan buyon 9 milliard dollardan ortiq miqdorda mablag‘lar jalb etilgan bo‘lib, ushbu bank mamlakatning transport infratuzilmasi, energetika va moliya sohasidagi yirik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Islom taraqqiyot banki ham O‘zbekistonda bir qator ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarda ishtirok etib, 1,2 milliard dollarga yaqin resurslar taqdim etgan. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki esa ayniqsa xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashda faol bo‘lib, oxirgi besh yil ichida kichik va o‘rta biznes subyektlariga 700 million dollardan ortiq moliyalashtirish manbalari orqali mablag‘lar ajratgan. Shuningdek, O‘zbekiston ko‘p tomonlama (Jahon banki, OTB, ITB kabi) va ikki tomonlama (Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar bilan) shartnomalar asosida ham moliyalashtirish manbalarini jalb qilib kelmoqda.

Loyihalarning monitoringi va nazorati tizimi esa xalqaro moliya tashkilotlarining mablag‘lari samaradorligining asosiy kafolatlaridan biridir. Har bir yirik loyiha doirasida ichki nazorat tizimi – loyiha ofisi (PMU) tashkil etiladi, u barcha bosqichlarni – moliyaviy oqimlardan tortib bajarilgan ishlar monitoringigacha – nazorat qiladi. Xalqaro audit tashkilotlari – Deloitte, Ernst & Young, PricewaterhouseCoopers kabi kompaniyalar yillik asosda audit o‘tkazadi. Real vaqtda monitoring vositalari – elektron monitoring platformalari, GIS va KPI indikatorlaridan foydalanish orqali loyihaning borishini kuzatish imkonini beradi. Moliyaviy ko‘rsatkichlar nazorati doirasida budjetga rioya etilishi, xarajatlar strukturasi, foyda va zarar tahlili, o‘zlashtirilgan mablag‘ning ulushi baholanadi. 2024-yildan boshlab Jahon banki tomonidan raqamlashtirilgan monitoring tizimi orqali loyihalarning 75% qismi real vaqtda kuzatilmoqda.



1-rasm. 2020–2024 yillarda xalqaro moliya tashkilotlarining mablag`lari asosida O‘zbekistonga ajratilgan moliyalashtirish hajmi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (2020–2024).

Ushbu ustunli diagramma O‘zbekiston Respublikasiga 2020-yildan 2024-yilgacha xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilgan moliyalashtirish manbalari asosida moliyalashtirilgan umumiy mablag‘ miqdorini yillik kesimda ko‘rsatadi. Grafikda har bir yil uchun million AQSh dollari ko‘rinishidagi mablag‘ hajmi keltirilgan. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi bilan bog‘liq favqulodda kreditlar, infratuzilma va sog‘liqni saqlash loyihalari asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2024-yilda moliyalashtirish hajmi keskin oshgan. Bu yilda EBRD, OTB va AIIB orqali yirik miqdordagi yashil iqtisodiyot, energetika va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan mablag‘lar ajratilgan. Diagramma orqali O‘zbekistonga xalqaro kreditlar oqimi dinamikasi, ularning yillik o‘zgarishlari va strategik yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy tasavvur hosil qilish mumkin.

Davlat organlari, ayniqsa Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Transport vazirligi kabi sohaviy idoralar

xalqaro donorlar bilan aloqani muvofiqlashtirish, kredit shartnomalarini ratifikatsiya qilish, loyiha tanlovi va ustuvor yo‘nalishlarni belgilashda asosiy vakolatli subyektlar sifatida qatnashadilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-avgustdagi PQ–348-son qaroriga muvofiq, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarni muvofiqlashtirish va monitoring qilishning yagona axborot platformasi ishga tushirilgan. Bu tizim orqali barcha vazirliklar va idoralar o‘z vakolatiga kiruvchi loyihalar bo‘yicha aniq vaqtda hisobot va ma‘lumotlarni kiritadi, bu esa davlat darajasidagi muvofiqlashtirishni soddalashtiradi.

Tadbirkorlar va xususiy sektor vakillari moliyalashtirish manbalari asosida amalga oshiriladigan loyihalarning bevosita foydalanuvchilari hisoblanadi. 2020–2024 yillar oralig‘ida EBRD, ADB va JICA tomonidan ajratilgan moliyalashtirish manbalari doirasida 8000 dan ortiq kichik va o‘rta biznes subyektlariga moliyaviy ko‘mak berilgan. EBRD‘ning 2024-yil fevral holatiga ko‘ra, O‘zbekistondagi sarmoya portfelining 56 foizi xususiy sektor loyihalariga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa sanoat, qishloq xo‘jaligi, IT va xizmat ko‘rsatish sohalarida xususiy kompaniyalar uchun ajratilgan kreditlar, subvensiyalar va texnik yordam dasturlari samarali bo‘lmoqda. Masalan, Toshkent viloyatida joylashgan “Green Agro” kompaniyasi ADB tomonidan ajratilgan \$2,5 millionlik kredit asosida o‘z issiqxona kompleksini kengaytirdi va 100 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratdi.

Hududiy hokimliklar esa loyihalarning joylarda amalga oshirilishini ta‘minlashda, infratuzilma tayyorlashda va aholining ehtiyojlarini inobatga olgan holda subloyihalarni shakllantirishda ishtirok etadi. Masalan, Qashqadaryo viloyati hokimligi 2022-yilda Jahon banki ko‘magida suv ta‘minoti va sanitariya loyihasini mahalliy darajada muvofiqlashtirib, aholining 85 ming nafariga sifatli ichimlik suvi yetkazib berishni yo‘lga qo‘ydi. Bunday holatlar, ayniqsa, loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Amalga oshirilgan yirik loyihalar tahlilidan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda xalqaro moliya tashkilotlarining mablag‘lari doirasida eng muvaffaqiyatli deb topilgan loyihalar energetika, suv xo‘jaligi, transport, ijtimoiy xizmatlar va ekologiya sohalarida to‘plangan. Energetika sohasida 2021-yilda Talimarjon issiqlik elektr stansiyasining modernizatsiyasi

loyihasi ADB tomonidan \$340 million mablagʻ asosida amalga oshirilgan boʻlib, uning natijasida ishlab chiqarish quvvati 900 MVt ga oshirildi. Bundan tashqari, 2024-yilda Xorazm viloyatida quyosh elektr stansiyasi qurilishi Jahon bankining \$3,5 millionlik kafolati asosida xususiy investitsiya jalb qilgan holda boshlangan.

Suv resurslarini boshqarish boʻyicha 2022-yilda amalga oshirilgan “Irrigatsiya va drenaj tizimlarini yaxshilash” loyihasi doirasida 180 million AQSh dollaridan ortiq mablagʻ jalb etilib, 150 ming gektar sugʻoriladigan yerning suv taʼminoti yaxshilandi. Transport infratuzilmasi sohasida AIIB tomonidan 2020-yilda Buxoro viloyatida \$165,5 millionlik yoʻl infratuzilmasi loyihasi moliyalashtirilib, 200 km dan ortiq avtomobil yoʻli kapital taʼmirlandi. Ijtimoiy sohalarda esa sogʻliqni saqlash va taʼlim tizimlaridagi loyihalar pandemiya davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi — 2020–2021 yillarda Jahon banki va ADB tomonidan sogʻliqni saqlash infratuzilmasi uchun ajratilgan \$100 million mablagʻ evaziga koʻplab tibbiy uskunalar xarid qilindi va tuman markaziy shifoxonalari modernizatsiya qilindi.

Moliyalashtirishning oʻz vaqtida taʼminlanishi esa loyihalarning choʻzilishini oldini oladi. EBRD, AIIB va Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarning 80% dan ortigʻi reja boʻyicha moliyalashtirilmoqda. Bundan tashqari, donor tashkilotlar bilan faol va uzluksiz muloqot yuritish, muammolarni operativ hal qilishga yordam beradi. Masalan, 2023-yilda EBRD va Oʻzbekiston hukumati oʻrtasida onlayn platforma orqali loyihaviy savollar va shikoyatlarni real vaqt rejimida koʻrib chiqish tizimi ishga tushirildi.

1-Jadval

2020–2024 yillarda Oʻzbekistonda xalqaro moliya tashkilotlarining mablagʻlari asosida moliyalashtirilgan yirik loyihalar va ularning sohalar kesimidagi taqsimoti

Soha	2020	2021	2022	2023	2024
Energetika	150.0	340	310.0	280	3.5

Suv resurslari / irrigatsiya	50.0	60	180.0	75	100.0
Transport infratuzilmasi	165.5	70	90.0	100	110.0
Sogʻliqni saqlash	100.0	90	85.0	95	105.0
Taʼlim / raqamli inklyuziya	30.0	45	55.0	100	60.0
Ekologiya / muqobil energiya	25.0	30	25.0	40	500.0
Xususiy sektor / MChJ	200.0	120	657.4	300	3366.0

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (2024).

Ushbu jadvalda 2020-yildan 2024-yilgacha boʻlgan davr mobaynida Oʻzbekistonda xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, OTB, AIIB, EBRD va boshqalar) tomonidan moliyalashtirilgan yirik loyihalarning umumiy qiymati, asosiy iqtisodiy va ijtimoiy sohalar boʻyicha yillik kesimda keltirilgan. Jadvalda har bir yil uchun energetika, suv xoʻjaligi, transport, sogʻliqni saqlash, taʼlim, ekologiya va xususiy sektor singari asosiy yoʻnalishlarga ajratilgan mablagʻlar (mln AQSh dollari hisobida) aniq koʻrsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Stiglitz, J. (2002). *Globalization and Its Discontents*. New York: W.W. Norton.
2. Rogoff, K. and Reinhart, C. (2009). *This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly*. Princeton University Press.
3. Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. Handbook of Economic Growth, Elsevier.

4. Beck, T., Demirguc-Kunt, A. and Levine, R. (2000). Finance and the Sources of Growth. *Journal of Financial Economics*, 58(1-2), pp.261–300.
5. Rodrik, D. (2018). *Straight Talk on Trade: Ideas for a Sane World Economy*. Princeton University Press.
6. Karimov, B. (2017). *O‘zbekistonda investitsiya jarayonlarining moliyalashtirish mexanizmlari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Abdullaeva, M. (2020). *Xalqaro moliyaviy institutlar va O‘zbekiston iqtisodiyoti: hamkorlik imkoniyatlari*. Toshkent: Ilm ziyo.
8. Tursunov, B. (2019). *Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda moliyalashtirish manbalari roli*. Samarqand: SamDU nashriyoti.